O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlari uchun BMT YEIK standarti

(UNECE Standard for Edible Meat Co-Products, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 14-sentabrdagi 32/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart “UNECE Standard for Edible Meat Co-Products” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Mundarija

IZOH		IV
MINNATDORCHILIK		V
1.	Kirish	1
2.	Minimal talablar	3
3	Xaridor tomonidan belgilanadigan talablar	4
4	Iste’mol qilinadigan go‘sht submahsulotlariga xaridor talablari uchun BMT YEK kodi	13
5	Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlarining tavsifi	15

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IZOH
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YEK / UNECE) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha Ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni yengillashtirish, yuqori sifatli ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, daromadlilikni oshirish hamda iste’molchilar manfaatlarini ximoya qilishga xizmat qiladi. BMT YEK standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, importchilar, eksportchilar va boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadilar. Ushbu standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turini, jumladan, yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quritilgan hamda qaqratilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, uzilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan har qanday davlat Ishchi guruh faoliyatida teng huquqlilik asosida ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar bilan rasmiy veb-saytimizda tanishishingiz mumkin: <www.unece.org/trade/agr>.

Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlari bo‘yicha ushbu qayta ko‘rib chiqilgan Standart Ishchi guruhining 2015-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan 71-sessiyasida qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2015/4 hujjati asosida tayyorlangan. Suratlar va tavsiflar Ishchi guruh tomonidan 2016-yil noyabr oyidagi 72-sessiyada ECE/CTCS/WP.7/2016/30 hujjati asosida qabul qilingan.

Izoh: Ushbu Standart qoidalari qamrab oladigan mahsulotlarni gipogiyena, ifloslantiruvchi moddalar, qoldiqlar yoki veterinariya dori vositalari va pestitsidlar, markirovkalash va markirovkalashga oid tegishli Kodeks standartlarining tegishli bo‘limlariga muvofiq tayyorlash va muomalada bo‘lish tavsiya etiladi.

(qo‘shimcha ma’lumotlar uchun: http://www.unece.org/trade/agr/standard/meat/meat_e.html)

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

MINNATDORCHILIK

BMT YEK standart uchun fotosuratlarni taqdim etganliklari uchun Fransiya va Amerika Qo‘shma Shtatlari delegatsiyalariga o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlari uchun BMT YEK standarti

Стандарт ЕЭК ООН НА ПИЩЕВЫЕ МЯСНЫЕ СУБПРОДУКТЫ

UNECE Standard for Edible Meat Co-Products

Amalga kiritish sanasi: 14.11.2026

1 Kirish

1.1 Go‘sht mahsulotlari uchun BMT YEK standartlari

BMT YEKning go‘sht mahsulotlariga oid standartlarining maqsadi xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi munosabatlarda foydalanish uchun xalqaro atamalarga oid tavsiyalarni ishlab chiqish orqali savdo tartib –taomillarini soddalashtirishdan iborat. Ushbu atamalar odatda xalqaro savdoga kiritiladigan go‘sht mahsulotlarini tavsiflash uchun xizmat qiladi hamda axborot uzatish va electron savdoni yuritish maqsadida kodlash tizimini nazarda tutadi. Tegishli matnlar muntazam ravishda yangilab borilishi sababli, ularga qo‘shimcha nomlarni kiritish zarur deb hisoblaydigan yoki mavjud nomlar noaniq yoki endi savdoga kiritilmayapti deb hisoblaydigan go‘sht sanoati vakillariga BMT YEK kotibiyatiga murojaat qilish taklif etiladi.

Ushbu nashr matni BMT YEKning Go‘shtni standartlashtirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sho‘basi rahbarligida ishlab chiqilgan. U BMT YEK tomonidan ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilishi rejalashtirilgan standartlar seriyasining bir qismidir.

Quyidagi jadvalda BMT YEK standartlari mavjud bo‘lgan yoki ishlab chiqilayotgan hayvon turlari hamda ularning BMT YEK go‘sht kodida foydalaniladigan kodlari keltirilgan (4-bo‘limga qarang).

Qo‘shimcha ma’lumot olish uchun BMT YEK rasmiy veb-saytiga tashrif buyuring: www.unece.org/trade/agr/standard/meat/meat_e.html/. Ushbu veb-sayt, shuningdek, kodlashtirish tizimining tavsifi hamda BMT YEK kodini amaliyotga joriy etish uchun mo‘ljallangan maxsus qo‘llash identifikatorini o‘z ichiga oladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Go‘sht turlari	*Go‘sht turi kodi (1-ma’lumotlar maydoni)*
Yirik shoxli qoramol go‘shti (mol go‘shti)	10
Yirik shoxli qoramol go‘shti (buzoq go‘shti)	11
Bug‘u	20
Cho‘chqa (Cho‘chqa qiymasi)	30
Qo‘y (Qo‘y go‘shti)	40
Kaprin (echki)	50
Lama	60
Alpaka	61
Tovuq	70
Kurka	71
O‘rdak	72
G‘oz	73
Quyon go‘shti	74
Ot go‘shti	80
Iste’molga yaroqli go‘sht mahsulotlari	90
Go‘sht qiymalarining chakana savdosi	91

1.2 Qo‘llanish doirasi

Ushbu Standart inson iste’moli uchun yaroqli bo‘lgan va sotuvga chiqariladigan oziq-ovqat go‘sht submahsulotlati uchun xalqaro atamani tavsiya etadi. U xaridorlarga go‘shtga ishlov berish, uni qadoqlash va o‘rash, shuningdek, xalqaro bozorda sotishga mo‘ljallangan go‘sht va go‘sht mahsulotlari savdosining ilg‘or tajribalari asosida muvofiqlikni baholash bo‘yicha keng tanlov imkoniyatini taqdim etadi.

Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlarini etkazib berishni amalga oshirish uchun oziq-ovqat mahsulotlari standartlari va veterinariya nazorati bilan bog‘liq tegishli me’yoriy talablarga ham rioya qilinishi shart. Mazkur standart boshqa hujjatlardatartibga solinadigan jihatlarni qamrab olmaydi; bunday qoidalar milliy yoki xalqaro huquqiy me’yorlar yoxud import qiluvchi mamlakat talablari doirasiga kiritilgan.

Ushbu Standartda mahsulot jo‘natilgandan so‘ng uning sifatini saqlab qolish hamda Hukumatlarga ushbu Standart qamroviga kirmaydigan oziq-ovqat gigiyenasi, tamg‘alash va boshqa masalalarning muayyan jihatlari bo‘yicha yo‘riqnomalar berish maqsadini ko‘zlaydigan boshqa xalqaro bitimlar, standartlar va amaliyot kodekslariga havolalar mavjud. Sog‘liqni saqlash va sanitariya talablari bo‘yicha xalqaro me’yor sifatida *Codex Alimentarius* Komissiyasining Standartlari, Yo‘riqnomalari va Amaliyot kodekslariga murojaat qilinishi lozim.

1.3 Qo‘llanilishi

Yetkazib beruvchilar barcha shartnoma va spetsifikatsiya talablariga javob beradigan mahsulotlarni yetkazib berish uchun javobgardirlar va ushbu muvofiqlikni ta’minlash uchun mo‘ljallangan sifat nazorati tizimini yo‘lga qo‘yishlari tavsiya etiladi.

Mahsulotlarning ushbu batafsil talablarga mos kelishiga ishonch hosil qilish uchun xaridorlar mahsulotning xaridor tomonidan belgilangan shartlarga muvofiqligini ta’minlash maqsadida mustaqil, xolis uchinchi tomon xizmatlaridan foydalanishni tanlashlari mumkin. Standart

STANDARTLAR INSTITUTI HAMKORLIGIDA © 25/03/2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

qoidalarni tushunishni osonlashtirish uchun submahsulotlarning ko‘rgazmali fotosuratlarini o‘z ichiga oladi.

1.4 Qabul qilinishi va nashr etilish tarixi

Ixtisoslashtirilgan bo‘limning tavsiyasiga ko‘ra, Qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh ushbu Standartning birinchi versiyasini o‘zining 64-sessiyasida qabul qilgan (havola: ECE/TRADE/C/WP.7/2008/21). Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlari bo‘yicha qayta ko‘rib chiqilgan Standart uning 2015-yil noyabr oyidagi 71-sessiyasida qabul qilingan va ECE/CTCS/WP.7/2015/4 hujjatiga asoslanadi. Fotosuratlar va tavsiflar Ishchi guruh tomonidan 2016-yil noyabr oyida o‘tkazilgan 72-sessiyada ECE/CTCS/WP.7/2016/30 hujjati asosida qabul qilingan.

BMT YIK ning go‘sht bo‘yicha standartlari nashr etilgandan keyin har uch yilda bir marta to‘liq qayta ko‘rib chiqiladi. Qayta ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, zaruriyat tug‘ilganda yangi nashrlar chop etiladi. Tezkor e’tibor talab qiladigan o‘zgartirishlar BMT YIK rasmiy veb-saytida quyidagi manzilda e’lon qilinadi: http://www.unece.org/trade/agr/standard/meat/meat_e.html

2 Minimal talablar

Barcha oziq-ovqat submahsulotlari oziq-ovqat xavfsizligi va inspeksiya nazoratiga oid tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq muntazam faoliyat yuritadigan korxonalarda so‘yilgan sog‘lom hayvonlardan olingan bo‘lishi shart.[1]

Oziq-ovqat submahsulotlar quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- Tovar ko‘rinishi saqlangan holda shikastlanmagan bo‘lishi;
- Ko‘zga tashlanadigan qon laxtalari va suyak bo‘laklardan xoli bo‘lishi;
- Har qanday ko‘zga tashlanadigan yot moddalar (masalan: loy, yog‘och, plastik, metal bo‘laklari[2]) dan xoli bo‘lishi;
- Noxush va begona hidsiz bo‘lishi;
- Spesifikasiyada ko‘rsatilmagan suyak bo‘laklari mavjud bo‘lmasligi;
- Mahsulotga jismoniy ta’sir ko‘rsatuvchi ezilishlarsiz;
- sovuqdan kuyishlarsiz[3].

Oziq-ovqat submahsulotlarini olib tashlash va tayyorlash ularning butunligi va Tovar ko‘rinishini saqlab qolish hamda keraksiz kesilishlarning oldini olish uchun yetarlicha ehtiyotkorlik bilan amalga oshiriladi.

---

[1] TQXTning Birlashgan hayvonlar salomatligi kodeksining QBM va SXM ni olib tashlash bo‘yicha talablariga muvofiqligi:
www.oie.int/en/international-standard-setting/terrestrial-code/access-online

[2] Buyurtmachi tomonidan ko‘rsatilganda, iste’molbop submahsulotlar metall zarrachalarini aniqlash sinovidan o‘tkaziladi.

[3] Sovuqdan kuyish— bu qisman yoki to‘liq dastlabki rangning o‘zgarishi (odatda ochroq) va/yoki ushlab ko‘rgandagi xossalari (quruq, g‘ovak) bilan tavsiflanuvchi sirtning qaytarib bo‘lmaydigan mahalliy yoki keng qamrovli suvsizlanish sohasi.

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3. Xaridor tomonidan belgilanadigan talablar

Quyidagi kichik bo‘limlarda xaridor belgilashi mumkin bo‘lgan talablar va oziq-ovqat go‘sht submahsulotlarini kodlash uchun BMT YEK tizimi doirasida qo‘llaniladigan kodlar bayon etilgan (4-bo‘limga qarang).

3.1 Qo‘shimcha talablar

Xaridor tomonidan belgilanadigan talablar, kodda hisobga olinmaydigan (masalan, 9-“Boshqalar” kodi qo‘llanilganda) yoki mahsulot yoxud qadoq tavsifiga qo‘shimcha aniqliklar kiritadigan talablar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi hamda hujjat bilan tasdiqlanishi lozim.

3.2 Turlar

Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlari uchun 1.1-bo‘limda belgilanganidek, 1-ma’lumotlar maydonida 90-koddan foydalaniladi.

3.3 Mahsulot/bo’lak

2-ma’lumotlar maydonidagi to‘rt xonali mahsulot kodi 5-bo‘limda belgilangan.

3.4 Sovutish va muzlatish

Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlari sovutilgan, muzlatilgan yoki chuqur muzlatilgan holda sotuvga chiqarilishi mumkin. Qo‘llanilgan sovutish usuliga qarab, mahsulot vazni bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi lozim. Yetkazib berishning barcha bosqichraida atrof-muhit harorati shunday bo‘lishi kerakki, u quyidagi ko‘rsatkichlarga muvofiq mahsulotning barcha qismlarining ir xil ichki haroratini ta’minlashi lozim:

Sovutish kodi (4-ma’lumotlar maydoni)	**Toifa**	**Tavsif**
0	Ko‘rsatilmadi	Toifa ko‘rsatilmadi
1	Sovutilgan	So‘yishdan keyingi sovutish jarayonidan so‘ng har qanday vaqtda mahsulotning ichki harorati −1,5 °C dan kam bo‘lmagan va +7 °C dan yuqori bo‘lmagan darajada saqlanadi.
2	Muzlatilgan	Muzlatishdan so‘ng har qanday vaqtda mahsulotning ichki harorati −12 °C dan yuqori bo‘lmagan darajada saqlanadi.
3	Chuqur muzlatilgan	Muzlatishdan so‘ng har qanday vaqtda mahsulotning ichki harorati −18 °C dan yuqori bo‘lmagan darajada saqlanadi.
4–8	Kodlar qo‘llanilmaydi	—
9	Boshqa	—

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3.5 Mahsulot tarixi

3.5.1 Mahsulot tarixini kuzatish

Xaridorning talabiga binoan mahsulot tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish uchun kuzatuv tizimi zarur. Buning uchun shlab chiqarishning barcha tegishli bosqichlarida oziq-ovqat go‘sht submahsulotlari, karton qadoqlar va bo‘laklarni aniqlashning tekshirilishi mumkin bo‘lgan usulidan foydalanish lozim. Mahsulotga ilova qilinadigan hujjatlar da’volarni asoslash uchun foydalanishga yaroqli bo‘lishi, tartib-taomillarning muvofiqligi esa 3.10-bo‘limdagi Muvofiqlikni baholashga oid talablar to‘g‘risidagi nizomga muvofiq tasdiqlanishi kerak.

3.5.2 Submahsulotlar toifalari

Submahsulot toifasi kodi (3-ma’lumotlar maydoni)	**Toifa**	**Tavsif**
00	Ko‘rsatilmadi	Toifa ko‘rsatilmadi
10	Mol sub-mahsulotlari	Yirik shoxli mol
11	Buzoq sub-mahsulotlari	
30	Cho‘chqa sub-mahsulotlari	
40	Qo‘y sub-mahsulotlari	
42	Qo‘zichoq sub-mahsulotlari	
50	Echki sub-mahsulotlari	
52	Echki bolalari sub-mahsulotlari	
80	Otlarning sub-mahsulotlari	
99	Boshqalar	Boshqa har qanday toifadagi submahsulotlar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan

3.5.3 Parvarishlash tizimi

Xaridor parvarishlash tizimini belgilashi mumkin. Har qanday holatda ham parvarishlash import qiluvchi mamlakatda amal qilayotgan me’yorlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Agar bunday normalar mavjud bo‘lmasa, eksport qiluvchi mamlakat qonunchiligi qo‘llaniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ishlab chiqarish tizimi kodi (6-ma’lumotlar maydoni)	Toifa	Tavsif
0	Ko‘rsatilmadi	Tizim ko‘rsatilmadi
1	Asosan yopiq binolarda	Hayvonlarni yopiq binolarda saqlashga asoslangan ishlab chiqarish usullari
2	Cheklangan ochiq maydonda	Erkin harakatlanish imkoniyati cheklangan sharoitlarga asoslangan ishlab chiqarish usullari
3	Yaylovda	Ochiq yer maydonlaridan (yaylovlardan) foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish usullari
4	Organik	Import qiluvchi mamlakatning organik ishlab chiqarish bo‘yicha qonunchiligiga mos keladigan ishlab chiqarish usullari
5–8	Kodlar qo‘llanilmaydi	
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida

3.5.4 Oziqlantirish tizimi

Buyurtmachi tomonidan oziqlantirish tizimiga nisbatan aniq talablar belgilanishi mumkin. Har qanday holatda ham oziqlantirish import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mos kelishi shart. Agar bunday me’yoriy hujjatlar mavjud bo‘lmasa, oziqlantirish tizimi xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishiladi.

Oziqlantirish tizimi kodi (7-ma’lumotlar maydoni)	Toifa	Tavsif
0	Ko‘rsatilmadi	—
1	Don bilan oziqlantirilgan	Rasionning asosiy qismini don mahsulotlari tashkil etadi
2	O‘t-xashak bilan oziqlantirilgan	Rasionning asosiy qismini o‘t-xashak tashkil etadi, biroz donli oziqa qo‘shimchalari bilan
3	Faqat o‘t-xashak bilan oziqlantirilgan	O‘t-xashak rasionning yagona tarkibiy qismi hisoblanadi

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Oziqlantirish tizimi kodi (7-ma’lumotlar maydoni)	Toifa	Tavsif
4	Sutli oziqlantirish	Sut asosida oziqlantirish tizimi
5	Reseptli oziqlantirish. Shuningdek, emxashak	Sut o‘rnini bosuvchi sun’iy aralashmalarga asoslangan oziqlantirish tizimi
6	Funksional	Mahsulotning ayrim xususiyatlarini yoki uning ozuqaviy qiymatini o‘zgartirishga qaratilgan maxsus boyitilgan oziqlantirish tizimi
7–8	Kodlar qo‘llanilmaydi	
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan har qanday boshqa oziqlantirish tizimi

3.5.5 So‘yish tizimi

Buyurtmachi tomonidan so‘yish tizimiga nisbatan aniq talablar belgilanishi mumkin. So‘yish jarayoni har qanday holatda ham import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mos kelishi shart. Agar bunday me’yoriy hujjatlar mavjud bo‘lmasa, so‘yish tizimi xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishiladi.

So‘yish tizimi kodi (8-ma’lumotlar maydoni)	Toifa	Tavsif
0	Ko‘rsatilmadi	—
1	An’anaviy	Hayvonlarni so‘yishdan oldin karaxt qilish
2	Koshser	Tegishli diniy-marosimiy so‘yish tartib-taomillari qo‘llanilgan
3	Halol	Tegishli diniy-marosimiy so‘yish tartib-taomillari qo‘llanilgan
4–8	Kodlar qo‘llanilmaydi	
9	Boshqa	So‘yishning har qanday boshqa ruxsat etilgan usuli sotuvchi va xaridor tomonidan ko‘rsatilishi kerak

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3.5.6 So‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi"

Buyurtmachi tomonidan so‘yishdan keyingi ishlov berish tizimiga nisbatan aniq talablar belgilanishi mumkin. Har qanday holatda ham so‘yishdan keying ishlov berish jarayoni import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mos kelishi kerak. Agar bunday me’yoriy hujjatlar mavjud bo‘lmasa, so‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishiladi.

So‘yishdan keyingi ishlov berish kodi (9-ma’lumotlar maydoni)	**Toifa**	**Tavsif**
0	Ko‘rsatilmadi	
1	Yuvish	Xom submahsulotlarni chuchuk suvda yuvish
2	Qaynoq suvda chayish	65–75 °C haroratli suvda yuvish
3	Chala qaynatilgan	Bir necha daqiqa davomida qaynayotgan suvga botirilgan
4	Qaynatilgan va oqartirilgan	Oqartiruvchi modda bo‘yoq/vosita qo‘shilgan qaynayotgan suvga bir necha daqiqa davomida botirilgana
5	Qaynoq suvda chayish-oqartirish	Ushbu ishlov berish jarayoniga oqartiruvchi modda qo‘shilishi mumkina
6	Ichak yog‘ini olib tashlash[b]	
7	Ichak shilliq qavatini olib tashlash	
8	Ichak yog‘i va shilliq qavatini olib tashlash[a]	
9	Ko‘rsatilgan boshqa usul	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan holda belgilangan oziq-ovqat submahsulotlarga so‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi

[a] Ayrim mamlakatlarda oqartiruvchi moddalar qo‘shishga ruxsat berilmaydi.

[b] Buyurtmachi va sotuvchi mahsulotda qoladigan yog‘ning foiz miqdorini o‘zaro kelishib olishlari kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Izoh: Alohida bozorlarda amal qiladigan talablar o‘ziga xos xavfga ega materiallarni olib tashlashni tartibga soluvchi aniq qoidalarni o‘z ichiga oladi.

3.6 Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlarining rangi

Oziq-ovqat submahsulot rangi kodi (10-ma’lumotlar maydoni)	Toifa	Tavsif
0	Ko‘rsatilmadi	
1	Ko‘rsatilgan	Oraliq ko‘rsatilish talab etiladi
2–9	Kodlar qo‘llanilmaydi	

Rangga nisbatan aniq talablar, zarur hollarda, xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishib olinishi kerak

3.7 Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlarining o‘lcham/massa diapazonlari

O‘lcham/vazn oraliqlari kodi (12-ma’lumotlar maydoni)	Toifa	Tavsif
0	Ko‘rsatilmadi	
1	Vazn	Oraliq ko‘rsatilishi talab etiladi
2	Diametr	Oraliq ko‘rsatilishi talab etiladi
3	Uzunlik	Oraliq ko‘rsatilishi talab etiladi
4	Diametr va uzunlik	Oraliq ko‘rsatilishi talab etiladi
5	Vazn va diametr	Oraliq ko‘rsatilishi talab etiladi
6	Vazn va uzunlik	Oraliq ko‘rsatilishi talab etiladi
7	Vazn, diametr va uzun-lik	Oraliq ko‘rsatilishi talab etiladi
8	Ko‘rsatilgan boshqa ko‘rsatkich	Oraliq ko‘rsatilishi talab etiladi

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘lcham/vazn oraliqlari kodi (12-ma’lumotlar maydoni)	Toifa	Tavsif
9	Kod qo‘llanilmaydi	

3.8 Qadoqlash, saqlash va tashish

3.8.1 Tavsif va qoidalar

Birlamchi qadoq- bu mahsulot bilan bevosita aloqada bo‘ladigan va oziq-ovqat uchun yaroqli, sifatli materiallardan tayyorlanishi kerak bo‘lgan o‘ramdir. Ikkilamchi qadoq esa birlamchi o‘ramdagi mahsulotlarni o‘z ichiga oladi. Saqlash va tashish vaqtida iste’mol qilinadigan go‘sht submahsulotlari quyidagi minimal talablarga muvofiq qadoqlanishi kerak:

·Qadoqlangan yoki qadoqlanmagan holda sovitilgan;

·mahsulotni himoya qiluvchi o‘ramda muzlatilgan/chuqur muzlatilgan;

·Tuzlangan yoki namokobda;

·yakka tartibda qadoqlangan;

·uyma holda qadoqlangan (masalan, plastic yoki mumlangan karton konteynerlarda, bochkalarda);

·uyib qo‘yilgan (masalan, qavatma-qavat);

·Vakuumda qadoqlangan (VAC);

·O‘zgartirilgan gaz muhitida qadoqlangan (MAP);

·Boshqa usullar bilan qadoqlangan.

Yetkazib berishdan oldngi saqlash sharoitlari va tashish uchun ishlatiladigan uskunalar oziq-ovqat go‘shtli submahsulotlarining jismoniy, xususan, termik holatiga (ya’ni, sovutilgan, o‘zgartirilgan atmosfera sharoitida sovutilgan, muzlatilgan yoki chuqur muzlatilgan holatiga) mos bo‘lishi hamda import qiluvchi mamlakat talablariga javob berish kerak. Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro tashish to‘g‘risidagi va ushbu tashishlar uchun mo‘ljallangan maxsus transport vositalari to‘g‘risidagi BMT YEK Bitimining qoidalariga e’tibor qaratish lozim. (http://www.unece.org/trans/main/wp11/atp.html).

3.8.2 Qadoqlash kodi

Qadoqlash kodi (13-ma’lumotlar maydoni)	Toifa
0	Ko‘rsatilmadi
1	Yakka tartibda qadoqlangan
2	Uyma holda qadoqlangan (masalan, plastic yoki mumlangan katon konteynerlarda, boshkalarda)
3	Uyib qo‘yilgan (masalan, qavatma-qavat)
4	Vakuumda qadoqlangan
5	O‘zgartirilgan gaz muhitida qadoqlangan

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qadoqlash kodi (13-ma’lumotlar maydoni)	**Toifa**
6–8	Kodlar qo‘llanilmaydi
9	Boshqa

3.9 Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlarining tovar birliklarida yoki ularga biriktirilgan yorliqlarda ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar

3.9.1 Majburiy ma’lumotlar

Import qiluvchi mamlakatlarning milliy talablariga zarar yetkazmagan holda, mahsulot tamg‘alarida quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi shart:

Tamg‘alash ma’lumotlari	**Qadoqlangan yoki idishlarga joylangan go‘sht**
Kleymo	X
Qushxona raqami yoki to‘p raqami	X
So‘yilgan sana (ixtiyoriy)	X
Qadoqlangan sana	X
Mahsulot nomi	X
Har bir mamlakat talablariga muvofiq yaroqlilik muddati to‘g‘risida ma’lumot[d]	X
Har bir mamlakat talablariga muvofiq yaroqlilik muddati	X
Harorat yoki saqlash usullari: sovutilgan, muzlatilgan, chuqur muzlatilgan, tuzlangan yoki tuzli eritmada	X
Saqlash sharoitlari (3.4-bo‘lim sovitish qarang)	X
Qadoqlovchi, qayta ishlovchi yoki sotuvchini tegishli tarzda identifikatsiyalash	X
Miqdori (dona soni)	X
Netto vazni	X

[d] Saqlash muddati to‘g‘risidagi ma’lumot har bir import qiluvchi mamlakat talablariga muvofiq “…. Gacha iste’mol qilinsin” yoki “… gacha yaroqli” deb ko‘rsatilishi mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3.9.2 Qo‘shimcha ma’lumotlar

Import qiluvchi mamlakat qonunchiligi talabi bo‘yicha, xaridorning so‘roviga ko‘ra yoki qayta ishlovchining tanloviga ko‘ra mahsulot tamg‘alarida qo‘shimcha ma’lumotlar ko‘rsatili shiga yo‘l qo‘yiladi. Agar bunday ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, mahsulotga oid ushbu tasdiqlar/da’volar tasdiqlanuvchan bo‘lishi shart (shuningdek, 3.5.1-bo‘limga qarang).

Bunday mahsulotga oid tasdiqlar/da’volarga quyidagilar misol bo‘la oladi:

- Chorva mollarining xususiyatlari, yetishtirish va oziqlantirish tizimlari;
- Tug‘ilgan mamlakati;
- Parvarish qilingan mamlakat(lar);
- So‘yilgan mamlakati;
- Qadoqlangan mamlakat(lar);
- Kelib chiqqan mamlakat(lar). Ushbu standartda “kelib chiqqan mamlakat” atamasi jonliqning tug‘ilishi, o‘stirilishi, so‘yilishi, qayta ishlanishi/nimtalanishi va qadoqlanishi aynan bir mamlakatda amalga oshirilganligini ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan;
- So‘yish va so‘yishdan keyingi ishlov berish tizimlari;
- Parvarish qilingan va qayta ishlangan tizimlar;
- Miqdori (dona/bo‘laklar soni);
- So‘yilgan sanasi;
- So‘yish raqami;
- Saqlash sharoitlari (haroratdan tashqari).

3.10 Muvofiqlikni baholash talablariga oid qoidalar

Xaridor uchinchi tomondan mahsulotning sifat/nav/tasnif talablariga, xaridor tomonidan ko‘rsatilgan savdo standarti qoidalariga va/yoki hayvonlarni idenfikasiya qilish qoidalariga muvofiqligini baholashni talab qilishi mumkin. Quyidagi individual muvofiqlik baholari yoki ularning kombinatsiyasi tanlanishi mumkin:

Sifati/nav/tasnif talablariga muvofiqlikni baholash (sifat): uchinchi tomon mahsulotni ko‘zdan kechirib, uning talab qilingan sifat darajasiga mosligini tasdiqlaydi. Uchinchi tomonning tasdiqlovchi organi nomi va qo‘llaniladigan sifat standarti 3.1 bo‘limda ko‘rsatilgandek belgilanishi kerak.

Savdo standarti bo‘yicha muvofiqlikni baholash (savdo standarti): uchinchi taraf, sifat darajasi bundan mustasno bo‘lgan holda, mahsulotning ushbu savdo standartida ko‘rsatilgan va xaridor tomonidan belgilangan shartlarga muvofiqligini tekshiradi va sertifikatlaydi. Uchinchi taraf sertifikatlashtirish organining nomi 3.1-bo‘limda ko‘rsatilganidek belgilanishi shart. Xaridor uchinchi taraf sertifikatlashtirish organi nomidan keyin sertifikatlanishi lozim bo‘lgan xaridor tomonidan belgilangan opsiyalarni ixtiyoriy ravishda ko‘rsatishi mumkin.

Hayvonlarni/to‘pini identifikasiyalashning muvofiqligini baholash (hayvonlarni/to‘pini identifikatsiyalash): uchinchi tomon mahsulotni ko‘rib chiqadi va uning kelishilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydi.Uchinchi tomonning tasdiqlovchi organi nomi va tegishli talablar 3.1 bo‘limda ko‘rsatilganidek belgilanishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Muvofiqlikni baholash kodi (14-ma’lumotlar maydoni)	Toifa
0	Ko‘rsatilmagan
1	Sifat/nav/tasnifi bo‘yicha muvofiqlikni baholash (sifat)
2	Savdo standarti bo‘yicha muvofiqlikni baholash
3	hayvonlar/to‘pi identifikatsiyalash bo‘yicha muvofiqlikni baholash (jonliq IDsi)
4	Sifat va savdo standarti bo‘yicha muvofiqlikni baholash
5	Sifat hamda jonliq IDsi bo‘yicha muvofiqlikni baholash
6	Savdo standarti hamda jonliq IDsi bo‘yicha muvofiqlikni baholash
7	Sifat, savdo standarti hamda jonliq IDsi bo‘yicha muvofiqlikni baholash
8	Kod ishlatilmaydi
9	Boshqa

4. Iste’mol qilinadigan go‘sht submahsulotlariga xaridor talablari uchun BMT YEK kodi

4.1 Kodning ta’rifi

Oziq-ovqatbop go‘sht submahsulotlariga qo‘yiladigan xaridor talablarining UNECE kodi 14 ma’lumotlar maydoni va 20 ta raqamdan (3 ta raqam ishlatilmaydi) iborat bo‘lib, u 3 va 5-bo‘limlarda belgilangan kodlarning kombinatsiyasidir.

T/r	Nomi	Bo‘lim	Kod diapazoni
1	Hayvon turi	3.2	00–99
2	Mahsulot/bo‘lagi	5	0000–9999
3	Submahsulot toifasi	3.5.2	00–99
4	Sovutish rejimi	3.4	0–9
5	*Ishlatilmaydigan maydon*	–	0–9

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

T/r	Nomi	Bo‘lim	Kod diapazoni
6	Etishtirish/boqish tizimi	3.5.3	0–9
7a	Oziqlantirish tizimi	3.5.4	0–9
7b	*Ishlatilmaydigan maydon*	–	0–9
8	So‘yish tizimi	3.5.5	0–9
9	So‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi	3.5.6	0–9
10	Oziq-ovqat submahsulot rangi	3.6	0–9
11	*Ishlatilmaydigan maydon*	–	0–9
12	O‘lcham/vazn oraliqlari	3.7	0–9
13	Qadoqlash	3.8.2	0–9
14	Muvofiqlikni baholash	3.10	0–9

4.2 Misol

Quyida keltirilgan kodlash misoli sovutilgan va vakuumda qadoqlangan, uchinchi tomon tomonidan sertifikatlangan, xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan texnologiya bo‘yicha so‘yishdan keying ishlovdan o‘tkazilgan, ko‘rsatilgan o‘lcham/massa oralig‘ida bo‘lgan va yaylov tizimidan foydalangan holda o‘stirilgan hamda ozuqa bilan boqilgan qoramol tanasini kesish natijasida olingan yurakning tavsifini ifodalaydi.

Ushbu mahsulotga BMT YEKning quyidagi kodi beriladi: **90610010103200710152.**

№	Nomi	Talab / Tavsif	Kod qiymati
1	Tur	Oziq-ovqat go‘shti submahsulotlari	90
2	Mahsulot / Bo‘lak	Yurak	6100
3	Submahsulot toifasi	Qoramol go‘shti	10
4	Sovutish	Sovutilgan	1
5	*Maydon ishlatilmagan*	—	0
6	Ishlab chiqarish tizimi	Yaylov	3
7a	Oziqlantirish tizimi	Em-xashak	2
7b	*Maydon ishlatilmagan*	—	0

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

№	Nomi	Talab / Tavsif	Kod qiymati
8	So‘yish tizimi	Ko‘rsatilmagan	0
9	So‘yishdan keyingi tizim	Boshqa ko‘rsatilgan	7
10	Oziq-ovqat submahsulot rangi	Ko‘rsatilgan	1
11	*Maydon ishlatilmagan*	—	0
12	O‘lcham / vazn oralig‘i	Og‘irlik	1
13	Qadoqlash	Vakuumli qadoqlangan (VAC)	5
14	Muvofiqlikni baholash	Savdo standartlariga muvofiqlikni baholash	2

5. Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlarining tavsifi

“Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlari” tushunchasining ta’rifi:

«Oziq-ovqat go‘sht submahsulotlari» suyiladigan hayvonlarning bo‘laklarini ajratishda mushakli “qizil yoki oq” go‘shtdan tashqari olinadigan mahsulotlardir. Go‘shtni qayta ishlash hamada so‘yilgan hayvonlar tanasining ichki a’zolari va kamroq qiymatga ega qismlari.

5.1 Ko‘p tilli mahsulotlar indeksi

Mahsulot	Inglizcha	sahifa	Fransuzcha	Ruscha	Ispancha*	Xitoycha
QARAMOL GO‘SHTI – KOD (10)						
6000	Uzunchoq kesilgan til		Langue coupe longue			
6010	Qisqa kesilgan til		Langue coupe courte			
6030	Shvetsariya usulida tilni kesib olish		Langue coupe suisse		Lengua	
6040	Til o‘zagi (tomoq qirqimlari)		Racine de la langue			
6045	Til osti go‘shti		Filets de racine de langue			
6050	Lunj		Joue		Quijada	
6060	Og‘iz chetining so‘rg‘ichsiz lunji		Joue - sans papilles		Nuez de quijada	
6061	Tomirli lunj go‘shti		Viande de bajoue			

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

6260	Og‘izning so‘rg‘ichsimon chekkasi		Papilles			
6114	Bosh		Tête		Cabeza	
6240	Bosh go‘shti		Viande de la tête			
6120	Miya		Cervelle		Sesos	
6070	Dum		Queue		Rabo	
6080	Jigar		Foie		Hígado	
6090	Buyrak		Rognons		Riñón	
6211	Yurak va o‘pka		Basse			
6210	O‘pka		Poumons		Pulmones	
6183	Kekirdak (traxeya)		Trachée		Tráquea	
6100	Yurak		Cœur		Corazón	
6110	Ayri simon bez (buqoq bezi)		Thymus (ris)		Molleja	
6112	So‘lak bezlari		Glandes salivaires		Parótida	
6140	Katta qorin (qorin / qazuk)		Rumen (panse)		Mondingo	
6141	Katta qorin ustun-lari (mushak qismlari)		Piliers du rumen		Pilares del rumen	
6152	To‘r qorin (to‘rsi-mon oshqozon)		Réticulum (bonnet)		Bonete o Redecilla	
6154	Qatqorin (qatlama oshqozon)		Feuillet		Librillo	
6155	Shirdon		Abomasum		Cuajo	
2190	Yupqa diyafragma go‘shti		Abomasum			
2180	Qalin diyafragma go‘shti		Onglet			
6180	Urug‘don (urug‘ bezi / xaya)		Testicules		Creadillas	
6181	Erkaklik olati		Verge		Pene	
6182	Qizilo‘ngach		Œsophage			
6280	Qizilo‘ngach atro-fidagi go‘sht		Viande d’œsophage		Ligamentum nuchae	
6190	Taloq		Rate		Bazo	
6200	Paylar		Tendons			
6201	Bukuvchi paylar		Tendons fléchisseurs			
6202	Axilles (orqa oshiq) paylari		Tendons d’Achille			

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

6203	Diyafragma payi		Tissu tendineux			
6270	Diyafragma parda		Aponévrose du diaphragme		Membrana de l diafragma	
6271	Qorin devor pardasi		Aponévrose abdominale			
6272	Parda		Aponévrose			
6273	Bo‘yin payi		Ligament cervical postérieur (ligamentum nuchae)			
6493	Oyoqlar		Pieds			
6494	Sut bezlari		Glandes mammaires			
6495	To‘g‘ri ichak		Rectum (anus)			
6496	Inchichka ichak		Intestin grêle		Chinchulín	
6497	Yo‘g‘on ichak		Gros intestin		Tripa gorda	
6498	Ichaklar to‘plami		Intestin			
6450	Barqarorlashtirilgan qon		Sang stabilisé			
6451	Defibratsiyalangan qon		Sang défibriné			
6452	Qon plazmasi		Plasma sanguin			
6453	Qon zardobi		Sérum du sang			
BUZOQ GO‘SHTI – KOD (11)						
6500	Uzunchoq kesilgan til		Langue coupe longue			
6510	Qisqa kesilgan til		Langue coupe courte			
6520	Shveytsariya usulida tilni kesib olish		Langue coupe suisse			
6620	Bosh		Tête			
6621	Bosh suyagi		Crâne			
6570	Miya		Cervelle			
6524	Lunj go‘shti		Joue			
6614	Og‘izning so‘rg‘ichsimon chekkasi		Papilles (labiales)			
6624	Ichki a’zolar to‘plami (o‘pka, yurak, jigar)		Fressure			
6582	O‘pka		Poumons			
6550	Yurak		Cœur			
6530	Jigar		Foie			

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

6540	Buyrak		Rognons			
6559	So‘lak bezlari		Glandes salivaires			
6560	Ayri simon bez (buqoq bezi)		Thymus (ris)			
6561	Dum		Queue			
6580	Taloq		Rate			
6585	Bosh terisi		Masque			
6590	Paylar		Tendons			
6610	Yupqa diyafragma go‘shti		Hampe			
6611	Qalin diyafragma go‘shti		Onglet			
6622	Oyoqlar		Pieds			
6623	urug‘ bezi		Testicules			
6624	Ichki a’zolar to‘plami (o‘pka, yurak, jigar)		Fressure			
6625	Qizilo‘ngach		Œsophage			
6613	Qizilo‘ngach atro-fidagi go‘sht		Viande d’œsophage			
6626	Ichak		Intestin			
6628	oshqozon		Abomasum			
6629	Katta qorin (qorin / qazuk)		Rumen (estomac/panse)			
6632	Katta qorin ustun-lari (mushak qismlari)		Piliers du rumen			
6633	To‘r qorin (to‘rsi-mon oshqozon)		Réticulum (bonnet)			
6634	Qatqorin (qatlama oshqozon)		Feuillet (omasum)			
6640	Barqarorlashtirilga n qon		Sang stabilisé			
6641	Tarkibidan firbin olib tashlangan qon		Sang défibriné			
6642	Qon plazmasi		Plasma sanguin			
6643	Qon zardobi		Sérum du sang			
QO‘Y GO‘SHTI – KOD (40)						
ECHKI GO‘SHTI – KOD (50)						
7000	Uzunchoq kesilgan til		Langue coupe longue			
7010	Qisqa kesilgan til		Langue coupe courte			

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

7015	Shveytsariya usu-lida tilni kesib olish		Langue coupe suisse			
7150	Bosh		Tête			
7151	Bosh suyagi		Crâne			
7070	Miya		Cervelle			
7028	Lunj go‘shti		Joue			
7110	Bosh go‘shti qirqimlari		Viande de tête			
7140	Ichki a’zolar to‘plami		Fressure			
7141	Ichki a’zolar to‘plami		Basse			
7100	O‘pka		Poumons			
7030	Jigar		Foie			
7040	Buyrak		Rognons			
7050	Yurak		Cœur			
7060	Ayri simon bez (buqoq bezi)		Thymus (ris)			
7080	Katta qorin (oshqozon)		Rumen (estomac)			
7090	Taloq		Rate			
7091	Paylar		Tendons			
7130	Urug‘don		Testicules			
7485	Ichaklar (kolbasa qobiqlari)		Intestin			
7486	Inchichka ichak		Intestin grêle			
7487	Ko‘r ichak		Cæcum			
7495	Oyoqlar		Pieds			
7470	Barqarorlashtirilga n qon		Sang stabilisé			
7471	Defibratsiyalangan qon		Sang défibriné			
7472	Qon plazmasi		Plasma sanguin			
7473	Qon zardobi		Sérum du sang			
CHO‘CHQA GO‘SHTI – KOD (30)						
7500	Qisqa kesilgan til		Langue coupe courte			
7501	Shveytsariya usu-lida tilni kesib olish		Langue coupe suisse			
7502	Uzunchoq kesilgan til		Langue coupe longue			
7609	Til o‘zagi kesimi		Parure de ra-cine de langue			
7650	Lunj go‘shti		Joue			
7549	Bosh		Tête			

STANDARTLAR INSTITUTI #TMVRRU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

7550	Miya		Cervelle			
7585	Bosh terisi		Masque			
7586	Chakka go‘shti		Tempes			
7692	Quloqlar		Oreilles			
7693	Tumshug‘i		Groin			
7587	Lablar		Lèvres			
7525	Ichki a’zolar to‘plami		Fressure			
7524	Yurak va o‘pka		Cœur et poumons			
7540	Yurak		Cœur			
7526	O‘pka		Poumons			
7528	Kekirdak		Trachée			
7520	Jigar		Foie			
7530	Buyrak		Rognons			
7541	Qalin diyafragma go‘shti		Onglet			
7542	Yupqa diyafragma go‘shti		Hampe			
7543	Diyafragma		Diaphragme			
7510	Dum		Queue			
7515	Urug‘don		Testicules			
7527	Qizilo‘ngach		Œsophage			
7560	Oshqozon		Estomac			
7561	Oshqozon shilliq qavati (pepsinli)		Muqueuse (peptique) de l’estomac			
7570	Kapalaksimon kesilgan oshqozon		Estomac (coupe papillon)			
7571	Inchichka ichak		Intestin grêle			
7572	Ichak		Intestin			
7573	Yo‘g‘on ichak		Gros intestin			
7574	Ko‘r ichak		Cæcum			
7575	Yuqori chambar ichak		Chaudin			
7576	Qorin parda yog‘i		Suivant			
7577	To‘g‘ri ichak		Fuseau			
7578	Anal teshigi		Rosette			
7579	Tutqich		Ratis			
7580	Qovuq		Vessie			
7581	Bachadon		Utérus			
7582	Tuxumdonlar		Ovaires			
7600	Taloq		Rate			

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

7670	Ayri simon bez		Thymus (ris)			
7671	So‘lak bezi		Glandes salivaires			
7672	Oshqozon osti bezi		Pancréas			
7679	Suyaklar		Os			
7681	Bo‘yin suyagi		Échine			
7684	Diyafragma payi		Tissu tendineux			
7690	Terisi		Peau			
7694	Quloq tubi		Racine d’oreille			
7695	Charvi yog‘i		Crépine			
7696	Qorin yog‘i		Gras abdominal			
7697	Qovurg‘a osti		Graisse de flanc			
7674	Barqarorlashtirilgan qon		Sang stabilisé			
7675	Defibratsiyalangan qon		Sang défibriné			
7676	Qon plazmasi		Plasma sanguin			
7677	Qon zardobi		Sérum du sang			
7583	Tozalangan yelka osti yog‘li go‘shti		Gras dans la longe			
4175	Old tuyoqlar		Pieds avant			
4176	Orqa tuyoqlar		Pieds arrière			

·Ispan tilidagi tarjimalar Argentina delegatsiyasi tomonidan taklif etilgan.

Iste’mol qilinadigan go‘sht submahsulotlari bo‘yicha BMT YEOK standarti uchun rasmlar

5.1.1 Qaramol, tur kodi (10)

Qaramol mahsuloti	Rasm
Uzunchoq kesilgan til – 6000 Uzunchoq kesilgan til — bu tilning o‘zagi bilan birga butun a’zosi bo‘lib, unda tilosti suyagining bigizsimon shoxidan boshqa barcha shoxlari qoldiriladi. Hiqildoq, hiqildoq usti pardasi va kekirdakning dastlabki uchta xalqasi qoldiriladi. O‘zagi kekirdakning uchinchi xalqasi sathida kesiladi; qizilo‘ngach va xalqum butunlay olib tashlanadi. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: * Rangi (oq, qora yoki olacha);	

STANDARTLAR INSTITUTI #1MWBPU9JBQ1 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

* Yog‘i olib tashlanganligi, epiteliysi olib tashlanganligi yoki sanitariya nazorati talablariga muvofiq bo‘ylama kesilganligi; * Qoldirilgan yog‘ qatlamining taxminiy qalinligi; * Limfa/so‘lak bezlari olib tashlanganligi; *Ba’zi mamlakatlar tomonidan sotilishi taqiqlangan (xavf darajasi yuqori bo‘lgan materiallar) qismlari aniq ko‘rsatilishi kerak.	
Qisqa kesilgan til – 6010 Qisqa kesilgan til uzunchoq kesilgan tildan (6000) hiqildoq qopqog‘ining oldi va til osti suyagi orqa shoxlarining qalqonsimon tog‘ayidan bevosita orqaroqda, til o‘zagi va hiqildoqni kesib ajratish yo‘li bilan olinadi. Til osti suyagi bigizsimon-til osti shoxidan tashqari qoldirilib, hiqildoq usti suyagining uchi olib tashlanadi. Tilning o‘zagi taxminan 10 % yog‘ qoldirilib, “soxta yog‘siz go‘sht” gacha kesib olinadi; tilosti ezlari bundan mustasno, so‘lak bezlari olib tashlanadi. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: * Limfa va so‘lak bezlari olib tashlanganligi; * Rangi (oq, qora yoki olacha); *Yog‘i olib tashlanganligi, epiteliysi olib tashlanganligi yoki sanitariya nazorati talablariga muvofiq bo‘ylama kesilganligi.	
Qaramol mahsuloti	**Rasm**
Shvetsariya usulida tilni kesib olish – 6030 Shvetsariya usulida tilni kesish kalta kesilgan (6010) tildan tayyorlanadi. Buning uchun tilning ventral (ostki) yuzasidagi yog’lar, hiqildoq usti tog’ayi uchi, til osti suyagi, til osti so’lak bezlari hamda jag’-til osti mushagi (M. mylohyoideus) olib tashlanadi. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar:	

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

* Rangi (oq, qora yoki olacha); *Yog‘i olib tashlanganligi, epiteliysi olib tashlanganligi yoki sanitariya nazorati talablariga muvofiq bo‘ylama kesilganligi.	
Til o‘zagi (tomoq qirqimlari) – 6040 Til o‘zagi uzun kesilgan tildan olinadi, u yumshoq to‘qima bo‘lib, tomoq a’zolarini o‘rab turadi (hiqildoq, kekirdakning uchta halqasi, so‘lak bezlari, limfa tugunlari, yog‘, biriktiruvchi to‘qima va yondosh muskullar).	
Til osti go‘shti – 6045 Til osti go‘shti til ildizidan-ildizning har ikki tomonidagi muskullarni (to‘sh-qalqonsimon va to‘sh-til osti muskullarini) olib tashlash yo‘li bilan olinadi.	

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qaramol mahsuloti	Rasm
Lunj – 6050 Lunj – og‘izning chekka qismi bilan birga yuqori va pastki jag‘larning tashqi tomonini qoplab turuvchi mushak to‘qimasidir. U labdan boshlanib, og‘iz bo‘ylab quloq oldi so‘lak bezlarigacha davom etadi. Butun lunj labning tashqi qismini o‘z ichiga olmaydi, biroq og‘izning so‘rg‘ichsimon chetini qamrab oladi. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: * Quloq oldi limfa/so‘lak bezlari qoldirilganligi yoki olib tashlanganligi; * Tashqi yog‘ qatlami olib tashlanganligi.	
Og‘iz chetining so‘rg‘ichsiz lunji – 6060 Yonoq (6050-kodli mahsulot) barcha so‘g‘onchalar va quloq oldi bezi olib tashlanib, qo‘shimcha ishlov beriladi. Limfa bezlari va so‘lak bezlari olib tashlanmaydi. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: • Limfa bezlari va so‘lak bezlari olib tashlangan; • Tashqi yog‘ qatlami olib tashlangan.	
Tomirli lunj go‘shti – 6061 Paylardan tozalangan lunj go‘shti so‘rg‘ichsimon chetidan xoli bo‘lgan lunjdan quloq oldi limfa tugunlari, quloq oldi so‘lak bezlari va pastki jag‘ so‘lak bezlarini butunlay olib tashlash yo‘li bilan olinadi. Mahsulot tarkibiga faqat lunj mushaklari: M. masseter va M. buccinator, shuningdek, M. pterygoideus (pastki jag‘ ostida joylashgan) kirishi mumkin. Mahsulotda limfa tugunlari, so‘lak bezlari yoki boshning boshqa qismlaridan olingan mushak to‘qimalarining qoldiqlari bo‘lmasligi kerak.	

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qoramol go‘shti submahsulotlari	Rasm
Og‘izning so‘rg‘ichsimon chekkasi – 6260 Og‘izning so‘rg‘ichsimon chekkasi (baki) lunjdan (6050) olinadi. Buning uchun u M. masseter (chaynov mushagi) va M. buccinator (lunj mushagi) ning tabiiy birikish chizig‘i bo‘ylab kesib ajratiladi. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: ·Shilliq qavat olib tashlangan.	
Bosh (Head) – 6114 Ensa bo‘g‘imi va birinchi bo‘yin umurtqasi kesishuvi bo‘ylab (kesim bo‘yin umurtqalarining asosiy o‘qiga perpendikulyar ravishda amalga oshiriladi) tana go‘shtidan ajratib olingan va terisi shilingan butun qoramol boshi. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: ·Ba’zi mamlakatlar tomonidan sotish uchun ruxsat etilmagan qismlar ko‘rsatilishi lozim (alohida xavf tug‘diruvchi materiallar); ·Til olib tashlangan; ·Ko‘zlar olib tashlangan.	
Bosh go‘shti– 6240 Bosh go‘shti bosh qismidan tayyorlanadi va kalla suyagi hamda pastki jag‘dan ajratib olingan har qanday yoki barcha go‘sht bo‘laklarini o‘z ichiga oladi, biroq uning tarkibiga konusasimon so‘g‘onchalar kirmaydi. Bosh go‘shti tarkibiga tildan yoki bo‘yindan olingan limfa tugunlari, so‘lak bezlari, muskullar yoki kesim qoldiqlari kiritilmasligi kerak.	

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qoramol mahsulotlari	Rasm
Miya– 6120 Miya (miyacha, yarimsharlar, talamus va xalqasimon do‘nglikdan) iborat bo‘lib, orqa miyadan bevosita xalqasimon do‘nglikning orqa qismi bo‘ylab ajratiladi. *Tozalangan miya:* Miya to‘qimasi ko‘rinadigan darajada miya pardalari (teri yoki parda) olib tashlangan butun miya. Ba’zi mamlakatlar tomonidan sotish uchun ruxsat etilmagan qismlar ko‘rsatilishi lozim (alohida xavf tug‘diruvchi materiallar).	 
Dum – 6070 Dum tana go‘shtidan dumg‘aza va dum umurtqalari tutashgan bo‘g‘im bo‘ylab ajratib olinadi. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: ·Ortiqcha yog‘ qatlami kesib toza-langan; ·Umurtqalar soni.	
Jigar– 6080 Shtigel pallasini va kapsulani o‘z ichiga olgan butun a’zo. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: • Limfa tugunlari qoldirilgan yoki olib tashlangan; • Kovak vena olib tashlangan; • Boylam olib tashlangan; • Rangi; • Pardasi shilingan; • Hayvonning yoshi.	

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qoramol mahsulotlari	Rasm
Buyrak– 6090 Qon tomirlari, siydik yo‘li va kapsulasi olib tashlangan butun a’zo. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: • Tashqi yog‘lar qoldirilgan yoki olib tashlangan; • Buyrak darvozasi va ichki yog‘lar olib tashlangan yoki qoldirilgan.	
Yurak va o‘pka – 6211 Bir-biriga tutashgan o‘pka va yurakdan iborat. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: ·Birikkan a’zolarni olib tashlash uchun qo‘shimcha kesish.	
O‘pka– 6210 Butun a’zodan iborat. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: • Traxeya olib tashlangan; • O‘pka pallasiga ajratilgan; • Faqat diafraqmal palla; • Rangi.	
Traxeya – 6183 Traxeya odatda nafas tomori deb ataladi va hayvon nafas olish tizimining bir qismi hisoblanadi. Traxeya halqum asosidan ajratib olinadi va o‘pkagacha davom etib, u yerda uch qismga bo‘linadi. Traxeya bir qator tog‘ay halqalar, muskul hamda biriktiruvchi to‘qimalar va shilliq qavatdan iborat.	

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qoramol mahsulotlari	Rasm
Yurak – 6100 A’zoga kirish qismida qon tomirlari qisqartirib qirqilgan/kesilgan butun yurak. Yurak suyaklari olib tashlangan. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: ·Yurak quloqchalari, aorta va o‘pka poyasi olib tashlangan; ·Yurak asosidagi yog‘ qatlami qoldirilgan yoki olib tashlangan; ·Ishlov berilmagan — qon tomirlari va yog‘lar qoldirilgan.	
Timus bezi (Oshqozon osti bezi) – 6110 Timus bezi (yosh erkak yoki urg‘ochi hayvonlardan olinadigan) traxeya bo‘ylab tomoq birikmasi bilan qoplangan. Atrofidagi yog‘lar olib tashlangan.	
So‘lak bezlari– 6112 So‘lak bezlari lunjning ichki qoplamasini o‘z ichiga oladi.	

STANDARTLAR INSTITUTI #TMWRPU9J3Q - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qoramol mahsulotlari	Rasm
Katta qorin (oshqozon osti bezi) – 6140 Xashakli katta qorin: Katta qorin — bu to‘q rangli pardasi qoldirilgan, xom, yuvilgan va qaynoq suvda ishlov berilmagan qorin qismi. Tashqi yuzasi yog‘ to‘plamlaridan tozalab qirqiladi. Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: ·To‘rli qorin olib tashlangan yoki qoldirilgan; ·Ichki to‘q rangli qatlam olib tashlangan; ·Tuzlangan. *Qaynoq suvda ishlov berilgan katta qorin:* Katta qoringa keyinchalik qo‘shimcha ishlov beriladigan bo‘lsa, u qaynoq suvda oqartiriladi va zichlashtiriladi (issiq suvda yuvilib, toza ishlov berish apparatidan o‘tkaziladi). Alohida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan shartlar: • To‘rli qorin olib tashlangan yoki qoldirilgan; • Yog‘ olib tashlanganligi hamda boylam kesilgan yoki kesilmaganligi; • Yog‘ 80°C haroratdagi suv bilan olib tashlangan yoki tashlanmaganligi; • Suvda yoki sovutgichli omborda sovutilganligi; • Mahsulot ishlab chiqarilgan kunning ertangi kun muzlatilishi yoki muzlatilmasligi; • Mahsulot tabiiy rangda ekanligi yoki oqartirilganligi.	 Xashakli katta qorin  *Qaynoq suvda ishlov berilgan katta qorin*
Katta qorin burmalari (Katta qorin ustunlari)– 6141 Katta qorin ustunlari katta qorindan (6140-kodli mahsulot) bir butun bo‘lak holida ajratib olinadi. Tashqi yog‘ to‘plamlari olib tashlanadi.	

